

TA'LIM SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Xayitmurodova Dinora Umrzoq qizi

*Samarqand Davlat chet tillar instituti Ingliz filologiyasi va
tarjimashunoslik fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Bugungi rivojlanib borayotgan davrda axborot texnologiyalarining ahamiyati har bir sohada sezilarli darajada ortib bormoqda. Jumladan, ta'lim sohasida ham. Ushbu maqolada ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari borasida so'z boradi. Unda axborot resurslarining kengayishi va integratsiyalashuvi to'g'risida tahlillar va misollar asosida ma'lumotlar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, pedagogik soha, axborot, zamonaviy ta'lim, ilg'or tajriba, tadqiqot faoliyati, innovatsion metod.*

Abstract: *In today's rapidly developing era, the importance of information technologies is significantly increasing in every field, including education. This article discusses the main concepts, functions, and distinctive features of modern information technologies in education. It also provides information based on analyses and examples regarding the expansion and integration of information resources.*

Keywords: *quality of education, pedagogy, information, modern education, advanced experience, research activity, innovative method.*

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya vositalari iqtisodiyot, tibbiyot, ishlab chiqarish, boshqaruv kabi sohalarda jarayonlarni yengillashtirish va tezlashtirishda asosiy omilga aylanib bormoqda. Xuddi shuningdek, ta'lim sohasida ham texnologiyalarning ahamiyati yildan-yilga ortib, o'quv jarayonini samarali tashkil etishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli davr rivoji bilan birga ta'lim jarayoni ham tubdan o'zgarib, an'anaviy usullar o'rnini innovatsion yondashuvlar egallab bormoqda. Kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar, onlayn platformalar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar o'quv jarayonini yanada samarali va qulay qilishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida bilim olish jarayoni faqatgina sinf xonasi bilan cheklanib qolmay, masofaviy ta'lim orqali har qanday joyda va vaqtda davom ettirilmoqda. Bu esa o'quvchilar va talabalar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi davrda informatsion texnologiyalar, xususan internetning rivojlanishi insonlarning ta'lim olish madaniyatini hamda sifatini tubdan o'zgartirdi. Hozirgi vaqtda interfaol ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarning tafakkuri va fikrlash doirasini

kengaytirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy texnologiyalar an'anaviy dars jarayonlarini o'quvchilarga qiziqarli, interaktiv va samarali shaklda yetkazib berishda muhim sanaladi. Xususan:

- kompyuter va internet resurslari orqali istalgan mavzudagi ma'lumotlarni topish va o'rganish imkoniyati mavjud (ya'ni birgina tugmani bosish orqali kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin).

- Onlayn ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Zoom) masofaviy o'qitish jarayonini tashkil etishda keng qo'llanilmoqda. (Bunda o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'z uyidan turib biror qiyinchiliklarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi)

Multimedia vositalari (video, animatsiya, slaydlar) orqali murakkab mavzular osonroq tushuntirilmoqda shuningdek, ma'lum bir mavzuga xos rasm va tasvirlar o'quvchilarning tasavvur va tushunish darajasining o'sishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Bu orqali o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob ham olishadi va mavzuni nisbatan qulay tarzda o'zlashtirishadi. Elektron kutubxonalar yordamida ilmiy manbalarga tezkor kirish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa o'quvchilarni o'z vaqtida o'quv materiallari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda kitobxonlik darajasining oshishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Shu bilan birga, texnologiyalar o'qituvchilarga ham yangicha metodlarni qo'llash, dars jarayonini samarali tashkil etish va elektron testlar yordamida o'quvchilarning bilimni nazorat qilish hamda tezkor baholash imkonini beradi.

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, ta'limda ham texnologiyalar integratsiyasi natijasida yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Masalan, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturlar o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos mashg'ulotlarni taklif qilish imkonini bermoqda. Bu esa ularning o'z sohasiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirib, yangicha fikrlash va yondashuvlarga sabab bo'lmoqda.

Masalan:

AI test tizimlari – o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, qaysi mavzularda kuchli va qaysi joyda sust ekanini aniqlab beradi. Shaxsiylashtirilgan o'quv rejalar – sun'iy intellekt o'quvchi ehtiyojiga qarab mos mashqlar va materiallar tavsiya qiladi. Til o'rganishda AI (masalan, Duolingo, ChatGPT) – o'quvchining darajasiga qarab mashqlarni oson yoki qiyin qilib beradi. Virtual o'qituvchi yoki yordamchilar – talabaga darsdan tashqari vaqtda ham savollarga javob berib, tushuncha berishi mumkin. Ya'ni, ilgari hamma uchun bir xil dars usuli qo'llanilgan bo'lsa, endi esa texnologiya yordamida har bir o'quvchi uchun alohida yondashuvni yaratish imkoni mavjud.

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalar bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish yoki iqtisodiyotda, balki ta'lim sohasida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ular ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish va zamon talablariga mos kadrlar tayyorlashda beqiyos imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish orqali texnologiyalarni ta'lim jarayoniga yanada keng

joriy qilish mumkin. Bularning barchasi zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga qo'shayotgan ulkan hissalarini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraxmanov A.A. Ta'limda axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari. Innovative Academy jurnal., 2024.
2. Madaminova Marhabo. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o'rni (konferensiya)., 08.05.2024
3. https://uza.uz/oz/posts/zamonaviy-talimning-zamonaviy-talablari_583222
4. <https://nammohm.uz/2023/06/13/zamonaviy-talimda-raqamli-texnologiyani-o'rni>